

**INFEKSION JARAYONLARNING YUZAGA KELISHI VA YUQUMLI  
KASALLIKLARNING TARQALISHI***Dotsent Vahidova A.M**PhD Xudayarova G.N.**Bahronova Mehrangiz Azimjon qizi**(Davolash fakulteti talabasi)**SAMARQAND ZARMED UNIVERSITETI*

**Mavzuning dolzarbligi.** Infekcion jarayonlarning yuzaga kelishi odam organizmining reaktivligi, patogen qo'zg'atuvchi uchun kerakli moddalar va ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu omillarning munosabatiga qarab infekcion jarayon qo'zg'atuvchisi yoki xo'jayin o'limi bilan tugallanishi mumkin. Ushbu maqola mikroorganizmlarning makroorganizmga tushishi, sabablari, belgisi va uning profilaktikasi haqida to'liq ma'lumot berishga qaratilgan. Kasallik qo'zg'atuvchisining organizmga tushishi har doim ham kasallikka olib kelavermaydi. Ba'zida makroorganizm mikroob tashuvchi bo'lib qoladi. Organizmning yuqumli mikroblarga ta'sirchanligi asab, endokrin, immun va boshqa tizimlar holati, jinsi, yoshi va fiziologik holati ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** mikroorganizm, makroorganizm, yuqish yo'llari, belgisi, profilaktikasi.

**Maqsad:** Talabalarga mikroorganizmlarning yuqishi, infekcion jarayonlarning kechishi va chora tadbirlari haqida ma'lumot berish.

**Tadqiqot materiallari va usullari:** Tadqiqotchilar turli infektsiyalar bilan kasallagan bemorlarni kuzatishadi va ulardan material olinib umumiy virusologik tekshirish usulini qo'llashadi. Infekcion holatlarning rivojlanishida organizmning uzoq vaqt och qolishi, sovuq qotish, isib ketish, nurlanish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish va organizmning immune sistemasining pasayib ketishi sabab bo'ladi.

Infeksiyaning yuqish yo'llari:

1. Havо-tomchi va havо-chang yoli (Ko'kyo'tal, qizamiq, gripp)
2. Me'da-ichak yo'li (Ichburug', qorin tifi, vabo,)
3. Teri yo'lari Teri yo'llari infeksiyalari teri bilan aloqa qiladigan zararli mikroorganizmlar keltirib chiqaradigan infeksiyalardir. Ushbu infeksiyalar yaralar, kesishlar yoki boshqa yo'llar orqali tarqalishi mumkin.



#### 4. Muloqot yo'li 2xil bo'ladi:

- a) Bevosita aloqa yo'li (jinsiy yo'l orqali) bunga tanosil kasalliklari (zaxm, so'zak, OITS) misol bo'ladi
- b) Bilvosita yo'l (Bunda suv, havo, tuproq, oziq ovqat mahsulotlari, bemorning idish-tovoqlari va kiyimlari) muhim ahamiyatga ega.

#### 5. Transmissiv yo'l

#### 6. Parenteral yo'l

#### Yuqumli kasalliklarning rivojlanish davrlari:

- Yashirin davr – Mikroblar holati murtaklar, nafas yollari, me'da-ichak, siydik tanosil hujayralarida adgeziya qilinishi bilan kechadi
- Prodromal davr – Kasallikning birinchi nomaxsus belgilarining paydo bo'lishi
- Kasallikning avj olgan davri – Mikrobbing tez ko'payishi va kasallikka xos belgilarning paydo bo'lishi
- Rekonvalesensiya – Mikroblar faoliyatining to'xtashi va nobud bo'lishi. Bemor holatining yaxshilanishi.

Kasallikning avj olish davrida bemorda kasallikning klinik belgilari paydo bo'lib boshlaydi. Bu davrda kasallik qo'zg'atuvchisi yanada ko'payib organizmga qon orqali, limfogen va neyrogen usullar orqali tarqaladi. Shu bilan birga organizmning immune sistemasi kasallik qo'zg'atuvchisi bilan kurasha boshlaydi. Agar bakteriyalar qonga tushsa (Bakteremiya), bakteriya toksinlari tushsa (Toksinemiya), viruslar tushsa (Virusemiya) holati vujudga keladi.

#### Infeksiyaning aniqlash usullari:

Infeksiyani aniqlash uchun turli xil testlar qo'llaniladi. Ba'zi hollarda simptomlar va fizik tekshiruv etarli bo'lishi mumkin, boshqa hollarda [qon testlari](#), siydik sinovlari, tomoq testi, axlat testlari va boshqa tibbiy ko'rish testlari kabi aniqroq testlar talab qilinadi.

Profilaktikasi: Infeksiyalarni davolash infeksiyaning turi va og'irligiga qarab o'zgaradi. Antibiotiklar ko'pchilik infeksiyalarni davolash uchun ishlatiladigan keng tarqalgan davolash usuli hisoblanadi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, antibiotiklar samarali emas, chunki ba'zi infeksiyalar viruslardan kelib chiqadi.

Antiviral preparatlar viruslar keltirib chiqaradigan infeksiyalarni davolash uchun ishlatiladi. Biroq, bu dorilar samarali bo'lishi uchun infeksiyaning dastlabki bosqichlarida olinishi kerak bo'lishi mumkin.

Zamburug'li infeksiyalarini davolash uchun antifungal preparatlar qo'llaniladi. Ushbu dorilar odatda infeksiyaning og'irligiga qarab topikal (teriga qo'llaniladi) yoki og'iz orqali (og'iz orqali qabul qilinadi) beriladi.

Immunitet tizimi zaif bo'lgan odamlarda infeksiyalarni davolash immunitet tizimini mustahkamlash uchun davolanishni o'z ichiga olishi mumkin. Infeksiyani davolash bilan bir qatorda infeksiyani oldini olish uchun bir necha oddiy qadamlar qo'yilishi mumkin. Ushbu qadamlar qo'llarni muntazam yuvish, emlash, [sog'lom ovqatlanish](#) va muntazam jismoniy mashqlar kabi oddiy choralarni o'z ichiga olishi mumkin.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda infeksiyalarning tarqalishi tashqi muhitga, makroorganizmdagi qulay sharoitga, infeksiya turiga va yashash sharoitiga bog'liq. Har bir inson o'z sog'lig'iga e'tiborli bo'lishi va sog'lom turmush tarziga rioya qilishi kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Simonsen L, Conn L.A, Pinner RW, et al. Trends in infectious disease hospitalizations in the United States, 1980–1994. Arch Intern Med 1998; 158:1923–8.
2. Emori TG, Banerjee SN, Culver DH, et al. Nosocomial infections in elderly patients in the United States, 1986–1990. Am J Med 1991;91(Suppl 3B):289S–93S.
3. McBean M, Rajamani S. Increased rates of hospitalization due to septicemia in the US elderly population, 1986–1997. J Infect Dis 2001;183:596–603.
4. 4.АМ Вахидова. [МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРИ ДЕТСКОМ ГОРОДСКОМ БОЛЬНИЦЕ С ДИАГНОЗОМ КАНДИДОЗ](#). Journal of new century innovations 24 (2), 21-29
5. ГН Худоярова, И Баротов, МА Мамадиярова. [ПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ САМГМУ СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕЖДУ МЕДИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО И МЕДИКО-ПРОФИЛАКТИЧЕСКОГО ФАКУЛЬТЕТА](#). Journal of new century innovations 24 (2), 30-35
6. Худоярова Г. Н., Хасанова Дурдона, Ибрагимов Сохиб, & Асроржонова Зулфизар. (2023). ПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕЖДУ ФАКУЛЬТЕТАМИ. Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 8(1), 59–64. Retrieved from